



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
biologiya fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 7-sinflar uchun
II chorak biologiya fanidan

DARS

ISHLANMALAR

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 7-sinflar uchun biologiya fanidan II chorak taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Soati	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Meva	1		
2.	Odam va hayvonlarning organlari va organlar sistemasi	1		
3.	Tirik organizmlarning o‘z-o‘zini boshqarish	1		
4.	Amaliy mashg‘ulot. Reflektor yoyini modellashtirish	1		
5.	Nerv sistemasi.	1		
6.	Laboratoriya mashg‘uloti. Yomg‘ir chuvalchangining refleksini kuzatish	1		
7.	Organizmlarning oziqlanishi	1		
8.	Loyiha ishi. Mineral o‘g‘itlarning o‘simlik rivojiga ta’sirini o‘rganish			
9.	Laboratoriya mashg‘uloti. Bargda	1		
10.	Hayvonlarning oziqlanishi	1		
11.	Nazorat ishi-3	1		
12.	Odamning ovqat hazm qilish sistemasi	1		
13.	Nazorat ishi-4	1		
14.	Amaliy mashg‘ulot. Ovqat hazm qilish sistemasini modellashtirish	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Meva

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otiladi, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko'nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o'rganib, o'zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o'quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini nazorat qilish.

Tarbiyaviy maqsad: hayvonot olamiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, tabiatni sevishtirishga, uni asrab-avaylashga undash, o'quvchilarni ekologik ta'lim-tarbiya ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutq madaniyatini oshirish, o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish, hotirjamlik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'zi yashab turgan hududdagi hayvonlarni taniy olish, ularning nomlarini va yozilishini bilish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

hayvonot dunyosi haqidagi ma'lumotlarni qaysi axborot vositalaridan olishni bilish, ulardan foydalana olish, hayvonot olami haqidagi ma'lumotlarni ajrata olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Gulli (yopiq urug'li) o'simliklarda urug'lanishdan keyin meva hosil bo'ladi. Meva urug'chi tugunchasidan hosil bo'ladi. U ikki qism: meva eti va urug'dan iborat. Quyidagi rasmni tahlil qiling. Meva hosil bo'lishida gulning qaysi qismlari ishtirok etadi?

Urug'lanishdan so'ng urug'chi tugunchasi va gulning boshqa qismlaridan meva eti, urug'kur-takdan esa urug' hosil bo'ladi. Tugunchada faqat bitta urug'kurtak bo'lsa, bir urug'li meva, ko'p urug'kurtak bo'lsa, ko'p urug'li meva hosil bo'ladi. **Mevalarning vazifalari:** 1) urug' pishib yetilguncha uni tashqi ta'sirdan himoyalab turadi; 2) urug'ning tarqalishini ta'minlaydi. Meva eti seret bo'lgan mevalar **ho'l meva** deyiladi. Aksincha, meva eti yupqa bo'lgan mevalar **quruq meva** deyiladi. Urug' soniga ko'ra bir urug'li va ko'p urug'li mevalar farqlanadi. Quruq mevalar chatnaydigan va chatnamaydigan mevalarga ajratiladi.

HO'L MEVALAR


Danakli meva

Meva eti uch qismdan: yupqa tashqi po'st, sersuv oraliq qism, qattiq ichki qism – danakdan iborat, danak ichida bitta urug' joylashgan. Masalan, shaftoli, gilos.



Rezavor meva

Tashqi tomondan yupqa po'st bilan o'ralgan ko'p urug'li sersuv meva. Masalan, tok, ituzum, kartoshka mevasi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Meva qanday qismlardan iborat?
2. Ho'l va quruq mevalar bir-biridan qanday farq qiladi?
3. Mevalarning bir va ko'p urug'li bo'lishi nima bilan bog'liq?
4. Mevalar qanday yo'llar bilan boshqa joylarga tarqaladi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyg'a vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Odam va hayvonlarning organlari va organlar sistemasi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otiladi, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko'nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o'rganib, o'zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o'quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini nazorat qilish.

Tarbiyaviy maqsad: hayvonot olamiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, tabiatni sevishga, uni asrab-avaylashga undash, o'quvchilarni ekologik ta'lim-tarbiya ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutq madaniyatini oshirish, o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish, hotirjamlik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxsiy o'quv maqsadlarini, zoologiya fanining mavzularini o'rganishda, referat mavzusini tanlashda oldiga qo'yilgan maqsadini ifoda eta olish;

hayvonot olami haqidagi o'rganganlarini, bilim va tajribalarni mustaqil ravishda muntazam oshirib borish; tabiatda o'z xatti-harakatlari bilan o'zini nazorat qila olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda o'z o'rnini bilgan holda tabiatdagi voqea va jarayonlarga daxldorlikni his etish va hayvonotlarni muhofaza qilish ishlarida faol ishtirok qila olishi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa


I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish,

uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Biologik sistema bir-biri bilan o'zaro bog'liq, ma'lum bir funksiyani bajaradigan o'ziga xos tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Masalan, odam orga-nizmi – tayanch-harakat, hazm qilish, nafas olish, ayirish, qon aylanish, sezgi, ko'payish organlaridan tashkil topgan biologik sistema. Odam – yaxlit organizm, uning barcha organlari o'zaro aloqada bo'lib, o'sishi va rivojlanishi hamda tashqi muhitga moslanishini ta'minlaydi. Odam organizm darajasidagi biologik sistema hisoblanadi. Har bir organizm organlar sistemalaridan, organlar sistemalari organlardan, organlar to'qimalardan, to'qimalar hujayralardan iborat. Tirik organizmlarning eng kichik birligi hujay-ra sanaladi. Hujayra esa anorganik va organik moddalar, ya'ni molekulalardan tashkil topgan. **Molekula.** Har qanday tirik organizm o'ziga xos funksiyalarni bajaruvchi biologik molekula-lar: nuklein kislotalar, oqsillar, lipidlar, uglevodlar va boshqa organik moddalardan tashkil topgan. Organizmning eng muhim hayotiy jarayonlari molekulyar darajadan boshlanadi. **Hujayra.** Hujayra organizmning elementar tuzilish va funksional birligidir. Hayvon hujay-ralari plazmatik membrana, sitoplazma va yadrodan iborat. Plazmatik membranasi hujayra ichki muhiti va tashqi muhit o'rtasidagi moddalar transporti hamda hujayralar o'rtasidagi o'za-ro aloqani ta'minlaydi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Tirik organizmlarning eng kichik birligi nima?
2. To'qimaga ta'rif bering.
3. Organ nima?
4. Nima uchun og'iz bo'shlig'i, halqum, qizilo'ngach, oshqozon, ichak, jigar, oshqozonosti bezi bir sistemaga birlashtiriladi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

30 listdan iborat astranomiya fanidan 7-sinf II chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**